

Nazar Eshonqulning “Bahoviddinning Iti” Hikoyasida Evrilish Hodisasi Tahlili

*Isroilova Gulsanam Husan qizi*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Nazar Eshonqulning “Bahoviddinning iti” hikoyasida namoyon bo‘ladigan evrilish hodisasi (metamorfoza)ning badiiy talqini tahlil qilinadi. Avvalo, evrilish motivining mifik ildizlari, afsona va ertaklardagi tasviri, so‘ngra yozma adabiyotda, xususan, Kafka hamda o‘zbek adabiyotidagi namunalar bilan taqqoslangan holda yoritiladi. Hikoyadagi bosh qahramonning itga aylanishi orqali insonning ruhiy-psixologik holati, jamiyatdan begonalashuvi va ichki uyg‘onish jarayoni falsafiy-tergoviy nuqtai nazardan talqin qilinadi. Asarda evrilish hodisasi oddiy fantastik vosita emas, balki insonning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi chuqur ramziy ma‘no yuklovchi vosita sifatida ko‘riladi. Shuningdek, hikoya tasavvufiy g‘oyalar, diniy motivlar va zamonaviy adabiy tafakkur doirasida tahlil qilinib, yozuvchining badiiy mahorati, tilning ifoda imkoniyatlari ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Nazar Eshonqul, evrilish hodisasi, “Bahoviddinning iti”, metamorfoza, mifik motiv, psixologik tug‘ilish, tasavvuf, zamonaviy o‘zbek hikoyasi, adabiy tahlil, ramziy obraz.

Kirish

Har qanday ijodkor u yozuvchi bo‘lsin yoki shoir o‘zgacha uslubda ijod qilishni xohlaydi va bu yo‘lda turli xil mavzularni, shakllarni yohud turfa yo‘llarni o‘z ijodida qo‘llaydi. Takrorlanmas tashbehlar, beqiyos o‘xshatishlar, so‘z o‘yinlari, hayotdan olingan qiziqarli voqealar, cheksiz hayol ummonidagi uydirmalar bari bari ijodkorlar ijodida qayta-qayta tug‘ilaveradi. Ba‘zan an‘anaviy tarzda asrlar mobaynida asarlar tarkibida epizodik tarzda kelgan sujet vaqt o‘tib asosiy o‘rinni ham egallashi mumkin. Masalan, evrilish hodisasini shunday sujetlardan biri deyish mumkin. Xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham biror narsa yoki shaxsning ikkinchi obyektga aylanish hodisasini xohlagancha uchratamiz. Lekin bu hodisa har davr oshganda o‘z mohiyati va maqsadini o‘zgartirib kelmoqda. Buni bilish uchun shu paytga qadar duch kelingan evrilish hodisasini qisqacha sharhlab o‘tamiz.

Evrilish motivining tarixiy asoslarini ibtidoiy jamoa, urug‘, qabilalarning odam va tabiat haqidagi ilk tasavvurlari, dunyoqarashlari mujassam bo‘lgan mifik motivlar tashkil etadi. Ushbu motivning mifik namunalarida qahramonning toshga, hayvonga, qushga aylanishi qonuniyat sifatida tushuntiriladi. Chunki ibtidoiy jamoa tasavvurida ruh bilan tabiatni birdek sanab, odam o‘zini jonli va jonsiz tabiatdan ajrata olmagan, ya‘ni bu narsa odam ikki xil qiyofada bo‘ladi degan tasavvurlarni ifodalagan. Ayniqsa, totemistik miflarda subyekt yarimi odam, yarimi hayvon, yarimi qush qiyofasida tasvirlangan, ya‘ni zooantropomorf obraz yaratilgan². Ushbu zooantropomorf obrazlar evrilish motivining semantik yadrosini tashkil etadi.

Mif tafakkurining daslabki bosqichlarida yaratilgan miflarda qahramonning tashqi qiyofasining o‘zgarishining sabablariga izoh berilmaydi (chunki miflar hamma vaqt izohlash funksiyasini bajarmaydi) yoki aylanishda aniq bir maqsad ko‘zlanmaydi. Bu holatta evrilish o‘z-o‘zidan, tashqi ta’sirlarsiz sodir bo‘ladi. Mif tafakkuri taraqqiyotining keyingi bosqichlarida inson o‘zining jonli va jonsiz tabiatdan, hayvonot va qushlardan o‘zgacha, alohida yaratilish ekanligini tushunib yetadi va bu bosqichlarda yaratilgan miflarda odamning toshga, hayvonga, qushga aylanishini qonuniyat deb

¹ Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

² Qasqabasov S. Qozaqning xalq prozasi. Almati, “G‘ilim”, 1984, 75–78-betlar.



hisoblashadi va evrilishning sodir bo'lishi qandaydir bir sabablar bilan tushuntiriladi, ya'ni sababli-maqсадli harakatlar bilan bog'liq holda izohlanadi. Bu evrilishning sabablari: odamning charchab uyquga ketib, boshqa narsaga (toshga) aylanishi, qarg'ish sababli jazolanishi yoki chorasizlikdan qo'rqinchli xavf-xatardan yashirinish uchun qahramon boshqa qiyofaga aylanadi. Bu kabi evrilish afsun, duo o'qish – so'z magiyasi orqali amalga oshiriladi.

Mifik ong va tafakkur shakllari taraqqiyotining keyingi davrlarida bu motiv dastlabki xususiyatlari va mifik funksiyalaridan ajralib, ertak, afsonalarning syujetiga singishi natijasida ularning badiiy-estetik tasvirlash vositalariga aylanganligi namoyon bo'ladi. Mifik evrilishda subyekt o'z-o'zidan, hech qanday vositalarsiz boshqa qiyofaga aylanadi. Afsonalarda esa qahramon boshqa qiyofaga aylanishi qandaydir bir predmet, tilsimli qurollar yoki so'z magiyasi yordamida amalga oshiriladi.

Afsonadagi evrilish motivi hikoyada ijtimoiy-estetik mazmunni ifodalashda poetik tasvirlash quroli vazifasini bajargan. Afsonaga qo'shib o'tgan bu evrilish motivi qadimgi davr kishilarining farovon turmush kechirish haqidagi orzuarmonlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Chunki oqquv-parilar odam qiyofasiga kirib, son-sonoqsiz ijtimoiy-hayotiy vazifalarni bajaradi, ovchiga mo'l-ko'l boyliklar ato etib, farovon hayot kechirishiga, uning hayotida yuz bergan qiyinchiliklarini, dushmanlarini yengishga ko'maklashadi va yovuzlik ustidan ezgulikning g'alaba qilishiga xizmat qilib, ijtimoiy-estetik kodni ifodalaydi.

Mifologik afsonalarning syujetida evrilish motivi izohlash vazifasini ham bajaradi. Bunda evrilishning ikki xildagi sababga ko'ra sodir bo'lishi tasvirlanadi. Birinchisi – qahramonning qarg'ish tufayli boshqa qiyofaga aylanishi, ikkinchisi – qahramonning o'z-o'ziga duo o'qishi orqali tashqi qiyofasini o'zgartirishi.

Demak, evrilish motivining tarixiy asoslarini ibtidoiy jamoa, urug', qabilalarning odam va tabiat haqidagi ilk tasavvurlari, dunyoqarashlari asosida paydo bo'lgan mifik motivlar tashkil etadi. Mif tafakkuri taraqqiyotining rivojlangan davrlarida bu motiv daslabki xususiyatlari va mifik funksiyalaridan ajralib, ertak, afsonalarning syujetiga singishi natijasida ijtimoiy-estetik kodni ifodalash bilan birga, badiiy tasvirlash vositasi va ma'rifiy, diniy ta'lim-tarbiya vositasi vazifalarini ham bajargan. Afsonalarda evrilish motivining yoritilishi orqali qadimgi davr odamlarining farovon, osoyishta hayot kechirish haqidagi orzu-umidlari badiiy tasvirlanadi, afsona qahramonning obrazi tipiklashtiriladi, shu orqali tinglovchiga estetik zavq bag'ishlab, insonlarni to'g'rilik, poklik, rostgo'ylik, halollik kabi umuminsoniy fazilatlariga da'vat etadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Nazar Eshonqul ijodining muhim namunasiga aylangan "Bahoviddinning iti" hikoyasida evrilish (metamorfoza) hodisasining badiiy-estetik va falsafiy qirralarini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, struktural tahlil, kontekstual (matnlararo) va komparativ adabiy metodlar uyg'unlashtirilgan holda qo'llanildi.

Birinchidan, **tarixiy-tipologik yondashuv** asosida evrilish motivining mifik ildizlari, xalq og'zaki ijodi – afsona va ertaklardagi ko'rinishlari, shuningdek, yozma adabiyotda Kafka singari klassik mualliflarning asarlaridagi namunalar bilan o'zaro qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Bu usul orqali evrilish hodisasining tarixiy ildizlari va ularning zamonaviy adabiyotda qayta talqin etilish jarayoni aniqlab olindi.

Ikkinchidan, **struktural tahlil** orqali hikoya kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, til vositalari, ichki muloqot va badiiy detallar o'rganildi. Rejissyorning ichki monologi, tasvirlar, it obrazi orqali berilgan ramzlar semantik tahlil asosida ochib berildi. Bu yondashuv asarda evrilish qanday qilib syujetning markaziy o'qi sifatida ishlatilganini aniqlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, **kontekstual (matnlararo) yondashuv** yordamida hikoyada keltirilgan epigraf – "Mantiq ut-Tayr"dagi parcha, Qur'oni Karimdagi hayvonga aylanishga doir oyatlar, tasavvufiy matnlar va boshqa adabiy manbalar bilan bog'liqlikda tahlil qilindi. Ushbu metod orqali yozuvchi Nazar Eshonqulning badiiy qarashlari hamda ruhiy-ma'naviy izlanishlari yoritib berildi.



To'rtinchidan, **komparativ adabiy yondashuv** yordamida "Bahoviddinning iti" hikoyasi boshqa zamonaviy o'zbek hikoyalari, jumladan, muallifning "Istilo" hamda Kafka asarlari bilan qiyoslandi. Bu orqali evrilish hodisasining o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos poetik talqini aniqlashtirildi.

Musulmonning bosh hujjati bo'lgan Qur'oni Karimga ham murojaat qilamiz.

Yasin surasi 67-oyatda "Agar Biz xohlasak, ularni turgan joylarida (maymun, to'ng'iz yo tosh kabi) narsalarga aylantirib qo'ygan bo'lur edik³" degan oyat mavjud. Bir nechta suralarda bunga misollar ham keltirilgan. "Tafsirlarda aytilishiga qaraganda, shanba kuni baliq ovidan qaytarilgan bir qabila yahudiylari Allohga hiyla ishlatib nofarmonlik qilganlari uchun Alloh ularni maymun shakliga kiritish bilan jazolagan. Iso (a.s) ga nozil bo'lgan dasturxon ne'matlariga noshukurchilik qilgan kofirlarni esa Alloh taolo jazolab, cho'chqa shakliga kiritib qo'ygan degan rivoyat bor⁴". Va yana Muso (a.s.) o'z hassasini firavn sehrarlari yonida yerga tashlaganida Ajdahoga aylangani ham qayd etilgan. Qayd etilgan holatlarning birinchi va ikkinchisida Allohning jazosi sifatida inson hayvonga aylangan bo'lsa, uchinchi holatda mo'jiza sifatida tilga olingan.

Vaqt o'tgan sari evrilish hodisasi yozma adabiyotga ham kirib kela boshladi. Yozma adabiyotda avval epizodik tarzda namoyon bo'ladigan bu motiv hatto bosh obraz darajasigacha ko'tarildi. Bunga Frans Kafkaning shu nomdagi hikoyasi misol bo'ladi. Hikoyada qahramon Grigor Zamza hasharotga aylanadi va shu tarzda olamdan ko'z yumadi. "Zamzaning odam bo'lib yashashi uchun hech qanday ehtiyoj yo'q edi, undan odam bo'lib yashash talab ham etilmaydi, oqibatda evrilish yuz berdi, odam talab qilingan ehtiyoj mahsuliga – hasharotga aylandi³³". Bu asar dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilindi va yangicha hikoya yozish uslubiga turtki bo'ldi.

Hozirgi adabiy jarayonimizda evrilish hodisasi Nazar Eshonqul

"Bahoviddinning iti" (qahramon itga aylanadi), "Istilo" (qo'zichoqqa aylanadi) hikoyalarida uchraydi. Yozuvchining "Bahoviddinning iti" hikoyasi boshqa hikoyalaridan ko'ra mazmun va shakl jihatdan o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Bir so'z bilan aytganda, asar qahramoni hikoya so'ngida itga aylanib qoladi va voqelik davomida qahramon ruhiyati shunga tayyorlab boriladi. Taniqli olim Ibrohim Haqqulning bu hikoya haqida aytgan gapi ham uning naqadar mazmunli va pishiq ekanligini ko'rsatib beradi: "Rosti gap, men hikoyani zo'r maroq bilan o'qidim.

Birinchidan, uning ma'no ildizi chuqur. Hatto tasavvufiy tajribalarga qarab uzanadi. Ikkinchidan, mo'ljalga olingan "nishon"ning o'ziyoq odamning dilida bir larza qo'zg'aydi. Uchinchidan, ma'naviyni moddiylashtirgan va moddiyni ma'naviylashtirish mohirlik bilan uddalangan". Hikoyaga "Mantiq ut tayr" dan olingan epigraf uning mavzu yo'nalishiga ya'ni muhabbat mavzusiga ishora qiladi: "...Shayx u go'zalning jamolini ko'rish umidida yor ko'chasidagi itlar orasiga qo'shildi". Hikoyaning boshlanishi ham soddagina – "Hammasiga muharrirning injiqligi sabab bo'ldi". Bu injiqlik ortidan hikoya qahramoni – rejissor, uning yordamchisi va ovoz rejissori tabiat shovqinlarini yozib olish uchun shahar chetidagi eski xiyobonga borib turli tovushlarni plyonkaga tushirishadi. Bu ish ikki marta amalga oshiriladi, lekin har ikkovida ular yozib olgan tovushlar o'rnini it uvillashi egallab olgan edi. Xiyobonda bu tovushni rejissordan o'zga hech kim anglamagan edi. Dastlab bu uvillash oddiy qiziqish edi, xolos. Keyinchalik, qiziqish kuchayib boraveradi: "Yordamchim yozib bergan tasmadagi itning uvillashini yana bir necha kun eshitib yurdim. Eshitganim sayin bu it nega uvillayapti, u kimni chorlayapti, kimga nola qilayapti degan o'y butun fikru xayolimni egallab oldi. Endi faqat nola qilayotgan it haqida o'ylar va erta-yu-kech qulog'im tagida faqat o'sha itning fig'oni jaranglardi. U qanday it? Egasi bormikin? Nega u bunchalik nola chekayapti?". Bu savollariga javob topish uchun rejissor xiyobonga boradi. Uni ancha izlaydi lekin topolmaydi. Dam olish uchun to'xtab ko'zini yumib turganda u ovozni eshita boshlaydi: "Uvillash bir olisdan, bir yonimdan eshitilar, ko'zimni ochib qaragim, uvillayotgan itni ko'zim bilan ko'rgim kelar, ammo birdan it ham, nola ham yo'qolib qolsa-chi degan xavotirda ko'zlarimni ochgim kelmasdi. Uvillashda munis anduh bor edi.

³ Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. –T.: "Cho'lpon", 2001. 495-bet.

⁴ Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. –T.: "Cho'lpon", 2001. 146-bet. ³³ Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha – T.: "Akademnashr", 2014. 279-bet.



Undan dard, musibat, iztirob, g'am-uqubat taralardi. Bu dardga va bu g'amga chidab bo'lmasdi. Uni eshitgan sayin shunchalik dard ko'payar, musibat ulug'lashar, g'am yurakni to'ldirar, yig'lagim kelardi, ammo uvillashdan taralayotgan xo'rlik oldida yig'i nima bo'libdi deb o'zimni ovutardim. Odam qanday chidaydi bu nolaga deb o'kirib yuborging kelardi". Shu taxlitda bir necha kun yumiqlik ko'zlar bilan itning nolasini tinglab yurgan rejissor bir nimani anglab qoladi – nolani eshitish asnosida turganda uning tanasidan it chiqib ketyotganini his qiladi. "O'shanday lahzalarda men bir narsani bilib qoldim: ko'zimni yumishim bilan mening ichimdan nimadir tashqariga sakrab chiqib ketar, menga o'sha sakrab chiqib ketgan narsa itday bo'lib tuyular, ammo mening ichimda it nima qiladi deya bu shubhani inkor qilardim. Asta-sekin boqqa kelishim bilan ichimdan sakrab chiqib ketgan sharpaning itga o'xshashligiga ishona boshladim. Ichimdan chiqib ketarkan, ko'kragim it panjalari bilan tiralgandek og'riqni his qilardim". Shundan so'nggina it uning ko'ziga ko'rina boshlaydi. Hikoya voqeligi davomida it va rejissor munosabati shakllanib boradi. It desa ijirg'anadigan yigit avval uning uvillashiga oshno bo'lib, so'ng nolasini eshitish uchun necha kunlab yumiqlik ko'zda vaqtini o'tkazadi, birinchi bor it o'zini namoyon qilib yana qochib ketib devor tirqishidan chiqqanda yigit devor ustidan sakrab o'tadi. Bora-bora o'zi ham it kabi o'sha devor tirqishidan chiqadigan bo'lib qoladi. U itni keyinchalik hatto inson deya tasavvur qila boshladi, itdagi xislatlar bunga ko'cha boshlaganidan hayratlanmay qoladi: "U mening tasavvurimdagi itga o'xshamasdi - kamsuqum, g'arib, va ustiga ustak o'ta qo'rqqoq edi. ...Undagi kamsuqumlik va ozurdalik menga ham asta-sekin yuqa boshladi". Ularning yaqinligi shu darajaga boradiki, it rejissor uyida yashay boshlaydi. Har kun unga boshidan o'tkazganlarini aytib beradi, aytib berish chog'ida eng yaqin do'stlaridan ko'ra ham yaxshiroq tinglovchi topganiga amin bo'ladi.

Suhbatlar davomida aytilgan quyidagi fikr etiborimizni toratdi.

Nazar Eshonqulning "Bahoviddinning iti" hikoyasi personaji itga aylanib yoriga – saodatga erishyapti. Uning inson bo'lib yurgan kezlardagi qalbini doimiy egallab yuradigan iztirob va zerikishga diqqat qiling. Insonlikdan voz kechib itga aylangach, qalbida minglab ilohiy quvonch yulduzlari porlay boshladi. Insonning itga aylanish jarayoni judayam qiziqarli hodisa. Bu hodisa zamiridagi ma'no qatlamlari esa, o'quvchini mulohazaga, mushohadaga undaydi. Yuqorida aytdikki, yozuvchining "Go'ro'g'li" romani qahramoni tirik bo'la turib, o'zining tirik ekanligini isbotlay olmayapti. "Bahoviddinning iti" hikoyasida esa inson itga aylanganidan keyingina o'zining inson ekanligini sezyapti. Inson ikki marta – birinchisida fiziologik, ikkinchisida psixologik jihatdan tug'iladi. Jismoniy tug'ilishda odam ona qornini tark etib, alohida mavjudlikka aylanyapti. Psixologik jihatdan qayta tug'ilish esa o'zgalarga fikriy-hissiy qaramlikdan butunlay xalos bo'lishdir. Abdulla Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasi qahramonida psixologik tug'ilish sodir bo'lmagan. "Bahoviddinning iti" hikoyasi qahramoni esa psixologik jihatdan qayta tug'ilish lazzati naqadar ilohiy bo'lishini sezib, saodatga erishyapti⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazar Eshonqul. Shamolni tutib bo'lmaydi. O'zbekiston adabiyoti san'ati. 1996.
2. Nazar Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. – T.: "Sharq", 2008
4. Adabiy turlar va janrlar. Birinchi jild. –T: "Fan", 1991. 384 b.
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom, -T.: "Fan", 1978. 232 b.
6. Ahmedova. Sh. Adabiyot tanqidchiligi janrlari. -T.: "Fan", 2006.
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T.: "O'zbekiston", 2002. 558 b.

⁵ Yo'ldosh Solijonov. Yil xirmoni – hosil sifati (Romanlar bo'yicha). "Sharq yulduzi" jurnali, 2013, №3, 124-bet

